



SURXONDARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

**SURXONDARYO
VILOYATIDA
QURILISH ISHLARI**

**2022- YIL
YANVAR-AVGUST**

2022-yilning yanvar-avgust oylarida, Surxondaryo viloyatida jami **4 200,2** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʼsish surʼati 2021-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **104,8 %** ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.

Yirik qurilish tashkilotlari

24,3

7,9

67,8


Norasmiy sektor

Kichik korxona
va mikrofirmalar


**2022- yil 1- sentabr holatiga
ko‘ra qurilish ishlari
bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan
korxona va tashkilotlar, birlikda**



Yillar kesimida soni



Hududlar kesimida



1 848

Bino va inshootlar
qurish

508

Fuqarolik obyektlarini
qurish

592

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o’sishiga o’zining munosib hissasini qo’shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 2021- yilning mos davri bilan solishtirganda o’sish sur’ati 106,6 foizga oshgan.

Qurilish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quydagi yo‘nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo‘nalishi 62,7 foiz ulushi tashkil etib, o’sish sur’ati 2021- yilning mos davriga nisbatan 103,1 foizga oshgan;

fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 17,2 foiz ulushi tashkil etib, o’sish sur’ati 2021- yilning mos davriga nisbatan 130,3 foizga oshgan;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 20,1 foiz ulushni va 101,5 foiz o’sish sur’atini tashkil etdi.

	Holatiga :		o'tgan yiliga nisbatan, % da
	01.09.2021- y.	01.09.2022- y.	
Surxondaryo viloyati	2 765	2 948	106,6
Termiz sh.	792	803	101,4
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	69	67	97,1
Angor	164	165	100,6
Bandixon	59	69	116,9
Boysun	132	153	115,9
Denov	179	203	113,4
Jarqo'rg'on	236	271	114,8
Qiziriq	158	172	108,9
Qumqo'rg'on	155	169	109,0
Muzrabot	121	131	108,3
Sariosiyo	153	171	111,8
Termiz	243	248	102,1
Uzun	64	70	109,4
Sherobod	99	105	106,1
Sho'rchi	141	151	107,1



**2022- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra
Surxondaryo viloyatida
faoliyat ko‘rsatayotgan qurilish
korxonalarini ulushi, % da**




Termiz sh. (27,2)



Termiz (8,4)



Jarqo‘rg‘on (9,2)



Qurilish ishlari 2022- yil yanvar-avgust uchun

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Surxondaryo viloyati	4 200,2	332,0	2 847,1	1 021,1
Termiz sh.	1 293,8	34,7	1 194,9	64,2
tumanlar:				
Oltinsoy	89,2	0,4	65,1	23,7
Angor	205,2	-	156,6	48,6
Bandixon	75,1	2,7	42,2	30,2
Boysun	264,6	-	168,7	95,9
Denov	378,9	-	209,0	169,9
Jarqo'rg'on	263,5	3,2	189,9	70,4
Qiziriq	140,2	0,4	109,7	30,1
Qumqo'rg'on	143,1	22,9	65,4	54,8
Muzrabot	182,6	-	107,4	75,2
Sariosiyo	511,9	247,6	131,7	132,6
Termiz	253,8	-	180,5	73,3
Uzun	106,4	20,1	60,6	25,7
Sherobod	181,8	-	87,0	94,8
Sho'rchi	110,1	-	78,4	31,7





2022- yilning yanvar-avgust oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 332,0 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yilga nisbatan 65,7 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2021- yildagi ko'rsatkich darajasidan 4,6 % punktga kamayib, 7,9 % ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari

2022- yil yanvar-avgust uchun

Pudratchi – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish-montaj, qayta ta'mirlash, kapital ta'mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug'ullanadi.





MA'LUMOT UCHUN: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Termiz shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 2,5 % i yoki 2021- yilga nisbatan 87,6 %), Qumqo'rg'on tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 16,0 % i yoki 2021- yilga nisbatan 66,8 %) va Sariosiyo tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 48,4 % i yoki 2021- yiliga nisbatan 71,8 %)ga to'g'ri keldi.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

2022- yilning yanvar-avgust oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 67,8 % i to'g'ri kelib, 2021- yil ko'satkichiga nisbatan 3,4 % punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilga nisbatan 109,3 % ni tashkil etgan holda 2 847,1 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, % da




67,8

2022- yil
yanvar-avgust

64,4


2021- yil
yanvar-avgust



MA'LUMOT UCHUN: Joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'satkichi Denov tumani (209,0 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 55,2 %), Termiz tumani (180,5 mlrd. so'm yoki 71,1 %), Boysun tumani (168,6 mlrd. so'm yoki 63,7 %)ga to'g'ri keldi.

Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari ulushi **24,3 %** ni tashkil etdi yoki **1 021,1 mlrd. so‘m** miqdorida qayd etildi. 2021- yilga nisbatan **113,5 %** ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **14,5** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa **4 185,7** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **0,3 %** va **99,7 %** ni tashkil etdi.



**Mulkchilik shakllari bo'yicha
bajarilgan qurilish ishlari
2022- yil yanvar-avgust oylarida**



	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk	
		mlrd. so'm	ulushi % da	mlrd. so'm	ulushi % da
Surxondaryo viloyati	4 200,2	14,5	0,3	4 185,7	99,7
Termiz sh. tumanlar:	1 293,8	14,5	1,1	1 279,3	98,9
Oltinsoy	89,2	-	-	89,2	100,0
Angor	205,2	-	-	205,2	100,0
Bandixon	75,1	-	-	75,1	100,0
Boysun	264,6	-	-	264,6	100,0
Denov	378,9	-	-	378,9	100,0
Jarqo'rg'on	263,5	-	-	263,5	100,0
Qiziriq	140,2	-	-	140,2	100,0
Qumqo'rg'on	143,1	-	-	143,1	100,0
Muzrabot	182,6	-	-	182,6	100,0
Sariosiyo	511,9	-	-	511,9	100,0
Termiz	253,8	-	-	253,8	100,0
Uzun	106,4	-	-	106,4	100,0
Sherobod	181,8	-	-	181,8	100,0
Sho'rchi	110,1	-	-	110,1	100,0

**Umumiy hajmdan yangi qurilish,
rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi
2022- yil yanvar-avgust oylarida**



Bajarilgan qurilish ishlaring katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlaring **75,0** % i yoki 3 148,2 mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

9,7 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan 306,1 mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **9,7** % ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan 1 918,4 mlrd. so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **60,9** % ni tashkil etdi.

60,9 %

29,4 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 923,7 mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **29,4** % ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-avgust oylarida

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Umumi hajmga nisbatan, % da
Surxondaryo viloyati	4 200,2	104,8	100,0
Termiz sh.	1 293,8	111,5	30,8
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	89,2	108,7	2,1
Angor	205,2	107,4	4,9
Bandixon	75,1	124,5	1,8
Boysun	264,6	109,6	6,3
Denov	378,9	115,4	9,0
Jarqo'rg'on	263,5	94,4	6,3
Qiziriq	140,2	108,8	3,3
Qumqo'rg'on	143,1	103,1	3,4
Muzrabot	182,6	115,5	4,4
Sariosiyo	511,9	86,0	12,2
Termiz	253,8	104,1	6,1
Uzun	106,4	88,1	2,5
Sherobod	181,8	102,2	4,3
Sho'rchi	110,1	109,3	2,6



Ma'lumot uchun: Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.

Surxondaryo viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

Bino va inshootlar qurilishi



ulushi % da

0,6

2021- yil
yanvar-avgust

0,7

65,6

33,8

65,8

33,5

2022- yil
yanvar-avgust



Yirik qurilish
tashkilotlari



Kichik korxona
va mikrofirmalar



Norasmiy
sektor

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 0,7 % ni tashkil etib, 2021- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,1 % punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2021- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,2 % punktga ko'payib, 65,8 % ni tashkil etdi.


Norasmiy sektoring ulushi esa 2021- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,3 % punktga kamayib, 33,5 % ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 32,4 % ni tashkil etdi va 2021- yilga nisbatan 16,2 % punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 67,6 % ni tashkil etdi (16,2 % punktga ko'payish).

ulushi % da




48,6



51,4



32,4



67,6



Yirik qurilish tashkilotlari

2021- yil
yanvar-avgust



Kichik korxona va mikrofirmalar

2022- yil
yanvar-avgust

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2021- yilga nisbatan 8,7 % punktga kamaydi va 8,8 % ni tashkil etdi. Qolgan 91,2 % i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021- yilga nisbatan 8,7 % punktga ko'paydi.

Hajmi
226,0 mlrd. so'm

8,8

2022- yil
yanvar-avgust

ulushi % da

2021- yil
yanvar-avgust

17,5

Hajmi
259,9 mlrd. so'm

91,2

2022- yil
yanvar-avgust

2021- yil
yanvar-avgust

82,5

**Yirik qurilish
tashkilotlari
ulushi**

**Kichik korxona va
mikrofirmalar
ulushi**

**Investitsiya va qurilish
statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni: (76) 225-65-59